

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Iqtisodiyot nazariyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Iqtisodiyot nazariyasi

1. Iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalar;
2. Mikroiqtisodiyot asoslari;
3. Makroiqtisodiyot asoslari;
4. Iqtisodiy tizimlar va ularning xususiyatlari;
5. Samaradorlik va farovonlik;
6. Iqtisodiy tahlil va amaliy ko‘nikmalar;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Asosiy iqtisodiy tushunchalar	Iqtisodiy ehtiyoj, resurs, tanlov, alternativ qiymatni izohlash; talab va taklif mohiyatini tushuntirish; narx mexanizmi va bozor muvozanatini grafikda ko'rsatishni bilishi lozim	10 ta
2	Mikroiqtisodiyot	Iste'molchi va firma xulqini tahlil qilish; xarajat va daromadlarni sharhlash; raqobat turlari va bozor tuzilmalarini solishtirish; talab-taklif o'zgarishlarining narxga ta'sirini izohlay olishi lozim.	7 ta
3	Makroiqtisodiyot	YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o'sish; inflyatsiya va ishsizlik turlari; fiskal va monetar siyosat; iqtisodiy sikllarni tahlil qilish; makro ko'rsatkichlar bo'yicha jadval va grafiklarni sharhlashni bilishi lozim.	8 ta
4	Iqtisodiy tizimlar va davlatning roli	Bozor, aralash va markazlashgan iqtisodiy tizimlarni solishtirish; bozor muvaffaqiyatsizliklari; davlat tartibga solish mexanizmlari; soliq siyosatining ta'sirini baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8 ta
5	Samaradorlik va farovonlik	Iqtisodiy samaradorlik mezonlari; resurslardan optimal foydalanish; ijtimoiy farovonlik nazariyalari; bozor va davlat aralashuvi bog'liqligini farqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
6	Iqtisodiy tahlil va amaliy ko'nikmalar	Grafik va statistik ma'lumotlar bilan ishlash; iqtisodiy modellar yordamida masalalar yechish; muammoli vaziyatlarga yechim taklif qilish; iqtisodiy qarorlarni tanqidiy baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	1 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	40%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	37%

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	23%
----	------------------------	---	-----

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Tavsiya etilgan adabiyotlar (Iqtisodiyot nazariyasi fani)
2. Karimov U. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
3. Burxonov I., Jo‘raev M. Iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2019.
4. Abdullayev Yo. Mikroiqtisodiyot. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
5. Mamatov A. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish”, 2022.
6. Astanov R. O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish strategiyasi. – Toshkent: “Tafakkur”, 2020.
7. Yo‘ldoshev Q. Bozor iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: “Universitet”, 2018.

8. Xolboyev A., Tursunov B. Iqtisodiy tahlil. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
9. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti: darslik / jamoa muallifligi. – Toshkent: “Sharq”, 2022.
10. Sodiqov B. Jahon iqtisodiyoti. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.
11. Iqtisodiy fikr tarixi. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2018.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*